



KORXONALARDA INVESTITSIYAVIY MULK PORTFELINI BOSHQARISH VA BUXGALTERIYA HISOBI

Axmedjonov Abdufato

SAMISI, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Maqolada investitsiyaviy ko'chmas mulk portfelini samarali boshqarish strategiyalari va bu jarayonni buxgalteriya hisobi bilan integratsiyalash masalalari yoritiladi. Portfel tahlili, risklarni boshqarish va hisobiy ta'minotning o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: mulk portfelini boshqarish, diversifikatsiya, risklarni boshqarish, investitsiyaviy strategiya, buxgalteriya hisobi.

Kirish. Investitsiyaviy ko'chmas mulk portfelini samarali boshqarish korxonaning uzoq muddatli daromadlilikini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Portfelni shakllantirish, diversifikatsiya qilish, risklarni baholash va monitoring qilish jarayonlari buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga bevosita bog'liq. Hisobiy ma'lumotlarning tezkorligi va aniqligi portfel boshqaruvining samaradorligini belgilaydi.

Agarda adolatli baholash natijasida qiymatning kamayishi yuz bersa (oldingi qayta baholashlarda qiymatning oshishi rezerv kapitalida aks ettirilmagan bo'lsa), u holda har qanday kamayish foyda va zararlarda aks ettiriladi. Masalan, boshqa bir holatda o'z maqsadlaridagi foydalanishda bo'lgan ko'chmas mulk balans qiymati 950 400 000 ming bo'lgan. Korxonada ushbu ob'ektni investitsiyaviy ko'chmas mulk kategoriyasiga o'tkazishga qaror qilindi. O'tkazish sanasida uning adolatli qiymati faol bozorda 850 300 000 so'm ekanligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, qiymatning pasayishi yuz bergan. Ushbu summa 100 100 000 so'mni tashkil etadi (950 400 000 – 850 300 000)ni tashkil etadi. Ushbu ob'ekt IKM tarkibiga o'tkazgunga qadar qayta baholanmagan, ya'ni rezerv kapitalida ushbu ob'ektga doir



mablagʻ mavjud emas. Ushbu jarayonni quyidagi buxgalteriya yozuvlarida aks ettiramiz.

D-t Foyda va zararlar (Qadrsizlanishdan zarar)..... 100 100 000
soʻm

K-t Jamgʻarilgan qadrsizlanish.....100 100 000

D-t Jamgʻarilgan qadrsizlanish.....100 100 000
soʻm

K-t 0120 “Bino va inshootlar”.....100 100 000

D-t 0192“Investitsiyaviy koʻchmas mulk: bino.....850 100 000
soʻm

K-t 0120 “Bino va inshootlar”.....850 100 000

Asos: Saturn metall MChJ korxonasi qarori bilan oʻz maqsadlarida foydalanishdagi balans qiymati 950 400 000 soʻm boʻlgan ob'ektni oʻtkazgunga qadar 850 300 000 soʻm adolatli qiymatda baholab, investitsiyaviy koʻchmas mulk tarkibiga oʻtkazdi. Qiymatning kamayishi natijasida zarar 100 100 000 soʻm foyda va zararlarda aks ettirildi (950 400 000 – 850 300 000).

Agarda ushbu aktiv oldingi qayta baholashlar natijasida qiymatining oshishi qayta baholash boʻyicha rezervga olib borilgan boʻlsa, bu safargi adolatli qiymati boʻyicha baholashda qiymatning kamayishi yuz bersa, u holda qiymatning kamayishi dastavval rezervni kamaytirishga, undan qolgan qismi esa foyda va zararlarga olib boriladi. Masalan, oʻz ehtiyojlarida foydalanadigan koʻchmas mulkning dastlabki balans qiymati 2022 yil 1 yanvar holati boʻyicha 3 400 000 000 soʻm, 2022 yil 31 dekabr holatida qayta baholashlar natijasida uning qiymati 3 550 000 000 soʻm qilib qayta baholandi. Qiymatning oʻsishi 150 000 000 soʻm (3 550 000 000 – 3 400 000 000) qayta baholash boʻyicha rezervga olib borilgan. Ushbu summa qayta baholash boʻyicha rezerv kapitaliga olib borildi. 2023 yil 31 yil dekabr holatida ob'ekt IKM tarkibiga oʻtkazildi. 2024 yil 10 yanvarida ushbu ob'ekt qayta baholanish natijasida uning qiymati 3 380 000 000 soʻm qilib belgilandi. Bundan



ko‘rinib turibdiki, 170 000 000 so‘m (3 380 000 000 – 3 550 000 000) qiymatning kamayishi yuz bergan. Belgilangan tartib bo‘yicha 170 000 000 qiymatning kamayishining 150 000 000 so‘m rezerv kapitalini kamaytirishga, qolgan 20 000 000 so‘mi esa foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda zarar sifatida aks ettiriladi.

Ushbu jarayonni quyidagi buxgalteriya yozuvlarida aks ettiramiz.

D-t 0120 “Bino va inshootlar”150 000 000

K-t 8510 “Mulknini qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar”150 000 000

Asos: Balans qiymati 2022 yil 1 yanvar holati bo‘yicha 3 400 000 000 so‘m, 2022 yil 31 dekabr holatida qayta baholashlar natijasida uning qiymati 3 550 000 000 so‘m qilib qayta baholandi. Qiymatning o‘shishi 150 000 000 so‘m (3 550 000 000 – 3 400 000 000) qayta baholash bo‘yicha rezervga olib borilgan.

D-t 0192 “Investitsiyaviy ko‘chmas mulk”3 550 000 000 so‘m

K-t 0120 “Bino va inshootlar”3 550 000 000

Asos: Balans qiymati 3 550 000 000 so‘m bo‘lgan o‘z ehtiyojlarida foydalanadigan ko‘chmas mulk 2023 yil 31 dekabr holatida IKM tarkibiga o‘tkazildi.

D-t 8510 “Mulknini qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar”150 000 000 so‘m

D-t “Foyda va zararlar” (qadrsizlanishdan zarar)20 000 000

K-t “Jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zarar”170 000 000

D-t “Jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zarar”170 000 000 so‘m

K-t “0192 “Investitsiyaviy ko‘chmas mulk”170 000 000

Asos: Samarqand suv ta‘minoti AJ 2024 yil 10 yanvarida ushbu ob‘ekt qayta baholanish natijasida 170 000 000 so‘m (3 380 000 000 – 3 550 000 000) qiymatning



kamayishi yuz bergan. Belgilangan tartib bo'yicha 170 000 000 so'm qiymatning kamayishining 150 000 000 so'mi rezerv kapitalini kamaytirishga, qolgan 20 000 000 so'mi esa foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda zarar sifatida aks ettiriladi.

Qayta baholash natijasida aktivlarning balans qiymatining oshishish quyidagicha aks ettiriladi:

1. Agarda oldingi baholashlarda ushbu aktivni qadrsizlanishdan zarar yuzaga kelgan bo'lsa va bu summa qadrsizlanishdan zarar jamg'arilmasi sifatida hisobga olingan bo'lsa, keyingi qayta baholashda qiymatning oshishish dastavval ushbu jamg'arilgan zararni kompensasiya qilishga qaratiladi va foyda va zararlar hisobotida shu shu summa darajasida aks ettiriladi;

2. qadrsizlanishdan zararni qoplagandan keyingi ortib qolgan summa qayta baholash bo'yicha rezerv kapitaliga olib boriladi;

3. investitsiyaviy mulkning keyinchalik hisobdan chiqarilishi yuz bersa, qayta baholash natijasida rezerv kapitalida to'plangan summa taqsimlanmagan foyda schyotiga o'tkazilishi mumkin. O'tkazish to'g'ridan –to'g'ri rezerv kapiladilana taqsimlanmagan foyda schyotiga o'tkazilganligi munosabati bilan foyda va zararalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirishga zaruriyat yuzaga kelmaydi.

Xulosa

Investitsiyaviy ko'chmas mulk portfelini samarali boshqarish va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik aniqlandi. Hisobiy ma'lumotlarning to'liqligi, o'z vaqtida taqdim etilishi va tahliliy xususiyatlari portfelni diversifikatsiya qilish, risklarni boshqarish va investitsiyaviy qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Amalda esa hisob va portfel boshqaruvi o'rtasidagi integratsiya yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda.

Ushbu integratsiyani kuchaytirish, zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish va portfel tahlilida buxgalteriya ko'rsatkichlaridan faol foydalanish orqali korxonalar investitsiyaviy faoliyatining rentabelligi va barqarorligini oshirishi mumkin.



Natijada, investitsiyaviy mulk portfelini boshqarish strategiyasi yanada ilmiy va amaliy asoslangan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, and Rahmatov Ozodbek Aktam O'g'li. "Information Technology Is Now Used Everywhere". *Miasto Przyszłości*, vol. 44, Jan. 2024, pp. 114-21, <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>.
2. Rajaboev, Shahboz Shodiyevich, and Abdunazar Burkhonovich Gaffarov. "ESSENCE OF DECISIONS ON MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 120-125.
3. Ражабоев, Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и анализ*, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4, <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>.
4. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "BUXGALTERIYADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 60.1 (2026): 84-91.
5. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "ONLINE ASSESSMENT SOFTWARE IN DISTANCE LEARNING: MY TEST AND ISPRING PROGRAMS AND THEIR APPLICATION." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 299-304.
6. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz, and SHomurodova Yasminabonu Ilkhomovna. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASIDAGI KORXONALAR RIVOJLANISHINI BOSHQARISH TIZIMI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 58.6 (2025): 7-13.



7. Sh, Rajaboyev Sh, and J. I. Xabibulloyev. "KOMPYUTER GRAFIKASI VA GRAFIK AMALLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAGI O‘RNI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 578-581.
8. Sh, Rajaboyev Sh. "KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 558-564.
9. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA SOHASIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 571-577.
10. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI." *Экономика и социум* 4-1 (131) (2025): 449-453.